

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.K/T.15.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

ZOKIROV XOLBEK TILLANAZAR UG'LI

**MAHALLIY KVARS ASOSIDA ATMOSFERAGA CHIDAMLI QURILISH-BEZAK
MAHSULOTLARI TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan-2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Zokirov Xolbek Tillanazar ug'li

Mahalliy kvars asosida atmosferaga chidamli qurilish-bezak mahsulotlari tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish..... 3

Закиров Холбек Тилланазар угли

Разработка технологии производства атмосферостойких строительных и отделочных материалов на основе местного кварца... 21

Zokirov Kholbek

Development of technology for producing weather-resistant construction and finishing materials based on local quartz..... 41

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 44

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.K/T.15.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

ZOKIROV XOLBEK TILLANAZAR UG'LI

**MAHALLIY KVARAS ASOSIDA ATMOSFERAGA CHIDAMLI QURILISH-BEZAK
MAHSULOTLARI TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan-2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2021.2.PhD/T2234 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat texnika universiteti hamda Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namdtu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim tarmog'iga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayev Olim G'ulamjanovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Temirov O'ktam Shavkatovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Xolmatov Dilshod Sattorjonovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.K/T.15.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «18» aprel soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan viloyati, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7. Tel.: (69) 234-15-23; faks: (69) 234-15-23; e-mail: namdtu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (154-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160103, Namangan shahar, Yangi Namangan tumani, Islom Karimov ko'chasi, 12-uy. Tel.: (99869) 234-15-23.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «2» aprel kuni tarqatildi.
(2026-yil «2» apreldagi № 8-raqamli reestr bayonnomasi).

Ergashev O.K.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, k.f.d., professor

Mallabayev O.T

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, k.f.f.d., dotsent

Sherqo'ziyev D.Sh.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida aholi sonining o'sib borishi qurilish materiallari sanoatini modernizatsiya qilish, raqobatbardosh, iqtisodiy jihatdan arzon va ekologik xavfsiz mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zaruratini yaratmoqda. Ayniqsa, quruq qurilish aralashmalari yo'nalishida yangi texnologiyalarni joriy etish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish ya'ni mahalliy xomashyolar asosida yuqori sifatli kompozitsion materiallar ishlab chiqishga e'tibor kuchaymoqda. Mavjud materillar o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish esa nafaqat iqtisodiy foyda olish, balki qurilish sanoati mustaqilligini ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi. Tayyor quruq qurilish aralashmalari an'anaviy suvoq materiallariga nisbatan samarali, energiya tejamkor va ekologik xavfsiz bo'lgan yangi turdagi materiallar texnologiyasini yaratish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda quruq qurilish aralashmalari tarkibida qo'llaniladigan kimyoviy qo'shimchalar mahsulot tannarxini ortishiga olib keladi. Olib borilayotgan so'nggi tadqiqotlarda tarkibni optimallashtirish orqali mahsulot sifati va xossalari saqlagan holda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish ustida izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, qurilish sanoatida bino va inshootlarning ichki va tashqi qismi uchun tayyor quruq qurilish aralashmalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, istemolchilar ehtiyojlarini ta'minlash; mahalliy xomashyolar asosida tayyor quruq qurilish aralashmalari ishlab chiqarish jarayonini soddalashtirishning samarali usullarini ishlab chiqish, bog'lovchi va to'ldiruvchilarning hamda qo'llaniladigan modifikatorlarning maqbul texnologik ko'rsatkichlarini aniqlash, sifati yaxshilangan quruq qurilish aralashmalari olishning maqbul texnologiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda kimyo va qurilish sanoatini jadal rivojlanirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, takomillashtirish hamda sifatli va yangi mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarini qurish, xomashyo bazasini mahalliyashtirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining uchinchi yo'nalishida ... milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashga qaratilgan sanoat siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushini oshirish va sanoat ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish...» kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan, mahalliy xomashyolar asosida bog'lovchi va to'ldiruvchilarning optimal nisbatlarini ishlab chiqish, to'ldiruvchilarning fizik kimyoviy xossalari tadqiq etish hamda ularni aralashma tarkibiga qo'llash hamda tayyor quruq qurilish aralashmalari ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24 yanvardagi PQ-99-son qarori – sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahalliy xomashyolarni chuqur qayta ishlashga oid, hamda 2019-yildagi 23-maydagi PQ-4335-son "Qurilish materiallari sanoatini

jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” qarori, 2019 yil 3 apreldagi PQ-4265-son «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va investitsion jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» va VII. «Kimyoviy texnologiya va nanotexnologiyalar» ustivor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoda qurilish materiallarini ishlab chiqarish texnologiyasi, ularning tarkibi, fizik-mexanik xossalari va qo‘llanilishi yuzasidan mahalliy va xorijiy olimlar qatoriga quyidagilar kiradi: V.I. Solomatov, M.V. Akulova, V.G. Batrakova, V.V. Belova, M.A. Goncharova, B.V. Guseva, V.S. Demyanova, L.M. Dobshitsa, V.T. Erofeeva, V.I. Kalashnikova, P.G. Komoxova, V.I. Kondrashenko, V.I. Loganina, N.I. Makridina, O.P. Mchedlova-Petrosyan, I.V. Nedoseko, V.T. Pertseva, O.V. Smirnova, V.D. Cherkasova, A.V. Usherova-Marshaka, S.V. Fedosova, A.P. Fedortsova, V.T. Fomicheva, G.I. Yakovleva, J. Bernal, M. Dzako, R. Lermite, Yu.M. Bajenov, A.V. Voljenskiy, V.F. Juravlev, V.S. Izotov, B.G. Skramtaev, R.Z. Rahimov, V.N. Yung, A. Axmedov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Shu bilan birga, quruq qurilish aralashmalarining yangi turlarini yaratish, ular tarkibida mahalliy xomashyo va texnogen chiqindilardan foydalanish, bu mahsulotlarning ekspluatatsion va texnologik xossalari yaxshilash bilan birga matematik modellash orqali oldindan baholash bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2024-2025 yillarga mo‘ljallangan XSh-2024/02-1 “Mahalliy xomashyolar asosida qurilish uchun bezak suvoqlari ishlab chiqarish texnologiyasini yo‘lga qo‘yish” mavzusidagi xo‘jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy kvarts asosida atmosferaga chidamli tayyor qurilish-bezak mahsulotlari tayyorlashning samarali texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mahalliy kvarts xomashyosining mineralogik, kimyoviy va fizik-mexanik xossalari kompleks o‘rganish, uning fraksiyaviy tarkibini aniqlash hamda qurilish aralashmalarida optimal to‘ldiruvchi sifatida qo‘llash imkoniyatlarini baholash;

quruq qurilish aralashmalari tarkibini takomillashtirish maqsadida C-3 rusumidagi plastifikator va gidroksietilsellulozaning turli molekulyar massali fraksiyalarini qo‘llash va ularni mahsulotning fizik-mexanik va ishlov berish

xossalariga ta'sirini aniqlash;

mahsulotning qotish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish, qotish kinetikasini tadqiq qilish va chiziqli regressiya usuli asosida matematik modellash orqali ixtiyoriy tarkibdagi aralashmani qotish kinetikasini oldindan prognozlash imkonini beruvchi matematik ifodani ishlab chiqish;

taklif etilgan quruq qurilish aralashmalarini sanoat miqyosida ishlab chiqarishni sinovdan o'tkazish, mahsulotning ekspluatatsion xossalarini aniqlash va GOST talablariga mosligini tekshirish;

"Farg'onaazot" AJ da hosil bo'ladigan qattiq karbonatli chiqindilarining fizik-kimyoviy tarkibini o'rganish, ularni gips va sement asosidagi qurilish aralashmalarida to'ldiruvchi va mikroto'ldiruvchi sifatida ishlatish texnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida quruq qurilish aralashmalari, mahalliy kvarts, "Farg'onaazot" AJ da hosil bo'ladigan karbonatli chiqindi, portlandsement, plastifikator (C-3) lar hamda turli modifikatorlar olingan.

Tadqiqotning predmeti qurilish-bezak materiallari uchun aralashmalarining optimal nisbatini aniqlash, «Farg'onaazot» AJ da hosil bo'ladigan ikkilamchi qattiq karbonatli mahsulotlarni aralashmalarga qo'llash jarayonlarini o'rganish va ishlab chiqish texnologiyasini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida kimyoviy (analitik, gravimetrik, titrometrik), fizik-kimyoviy (rentgenografik, IQ-spektroskopik va SEM), fizik (zichlik, namlik), fizik-mexanik (siqilish, egilish, adgezion xossalari, sovuq bardoshlilik), texnologik va reologik, statistik tahlil, matematik modellash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

quruq qurilish aralashmalarining tarkibi turli nisbatlarda bog'lovchilar va to'ldiruvchi fraksiyalari asosida dekorativ suvoq materiallari olish orqali ularning tarkibi optimallashtirilgan;

quruq qurilish aralashmalari tarkibiga kimyoviy plastifikator, modifikatorlar va mikroto'ldiruvchilar kiritish orqali aralashmaning ekspluatatsion va texnologik xossalariga ta'sir etuvchi nisbatlar aniqlangan;

«Farg'onaazot» AJ da hosil bo'ladigan qattiq karbonatli chiqindilarni kimyoviy, dispersion tarkibi va olingan mahsulotlarga kompleks ta'siri me'yoriy hujjatlarga muvofiq to'ldiruvchi sifatida ishlatish mumkinligi asoslangan;

quruq qurilish aralashmalari tarkibiga to'ldiruvchi va mikroto'ldiruvchilar kiritilishi orqali kalsiygidrosilikatlari hosil bo'lishi va mustahkamligining o'zagarishi sinov natijalari asosida isbotlangan.

passiv va faol komponentlar o'rtasidagi oqilona nisbatlar aniqlanib, qorishmaning xususiyatlarini tartibga solish imkoniyatlari aniqlangan.

mahalliy xomashyo asosida tashqi ta'sir omillariga chidamli va mustahkam kompozitsion qorishmalar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan va ularning qotish kinetikasi matematik model orqali asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sement va gipsli bog'lovchilar, mahalliy kvarts hamda mikroto'ldiruvchilar

bilan birga kimyoviy qo'shimchalar kiritish orqali yangi suvoq aralashmalari tavsiya etilgan va ularni tayyorlash uchun texnologik sxema ishlab chiqilgan; quruq aralashma tarkibiga plastifikator, modifikator kiritish orqali qotish kinetikasini va mahsulot mustahkamligini nazorat qilish mumkinligi isbotlangan;

"Farg'onaazot" AJ dan hosil bo'ladigan qattiq chiqindilarning kimyoviy tarkibi va fizik-mexanik xossalari o'rganilib, ushbu ikkilamchi mahsulot qurilish va boshqa sohalarda to'ldiruvchi sifatida ishlatish mumkinligi aniqlangan;

mahalliy xomashyolar bilan birga texnogen ikkilamchi mahsulotlar asosida quruq qurilish aralashmalarini tayyorlash texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Kimyoviy va fizik-kimyoviy tahlillar, eksperimental ishlab chiqarish texnologiyalar asosida olingan quruq qurilish aralashmalarining sinovdan o'tkazilganligi va amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarni adabiyotlar va me'yoriy hujjatlar bilan solishtirilganligi, shuningdek, zamonaviy o'lchov vositalaridan foydalanilganligi, matematik modellash usullari hamda ishlab chiqarishdagi ijobiy dalolatnomalar bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, mahalliy kvarts va ikkilamchi karbonatli mahsulotlar asosida yaratilgan quruq qurilish aralashmalarining fizik-kimyoviy, texnologik, reologik va ekspluatatsion xossalari kompleks o'rganish, tarkib va xossalari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, qotish jarayonini modellashtirish hamda mustahkamlikka ta'sir etuvchi omillarni belgilash orqali mahsulotning texnik parametrlarini aniqlash va turli tarkibli quruq qurilish aralashmalari ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, mahalliy xomashyolar asosida kompozitsion dekorativ suvoq aralashmalarini ishlab chiqish imkonini berishi, qurilish sohasi uchun texnologik jihatdan qulay, iqtisodiy jihatdan foydali va ekologik xavfsiz materiallar yaratish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va mahalliy sanoat salohiyatini oshirish imkoniyatlarini ta'minlaydi hamda tejamkor texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Mahalliy xomashyolar va sanoat chiqindilaridan dekorativ quruq qurilish aralashmalari olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan natijalar asosida:

mahalliy sement va kvarts asosida quruq qurilish aralashmalari ishlab chiqarish texnologiyasi «Inter paint» MCHJ da amaliyotga joriy etilgan ("O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasining 2025-yil 27-oktabrdagi 02/15-3492-son ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan namuna bugungi kunda mavjud dekortiv bezak mahsulotlaridan tannarxining arzonligi bilan farqlanadi. Bu o'z navbatida korxonaning iqtisodiy samara olishiga imkon bergan;

qattiq karbonatli chiqindilarni qurilish materiallariga qo'llash orqali yangi turdagi qurilish-bezak materiallari ishlab chiqarish texnologiyasi "Degrez qurilish savdo sanoat servis" X/K da amaliyotga joriy etilgan

(“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining 2025-yil 27-oktabrdagi 02/15-3492-son ma’lumotnomasi). Natijada, mahalliy homashyolar asosida olingan yangi tarkibli quruq qurilish aralashmalari belgilangan standartlarga to‘liq javob berishini xisobga olib, kelgusida ushbu dekorativ quruq qurilish aralashmalarini ishlab chiqarish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari 10 ta xalqaro va 5 respublika ilmiy amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 1 ta Scopus bazasiga kiritilgan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya 109 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ishning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari shakllantirilgan, tadqiqotning ob’ekti va predmeti tavsiflangan, dissertatsiya mavzusining Respublikamiz fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish natijalari ko‘rsatib o‘tilgan, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Dekorativ suvoq ishlarida qo‘llanadigan quruq qurilish aralashmalari, ularning tutgan o‘rni va xomashyo resurslari**» deb nomlangan birinchi bobi adabiyotlar sharhi hisoblanib, quruq qurilish aralashmalari tayyorlash, ularga qo‘yiladigan talablar hamda ularning tayyorlanish jarayonlari, aralashma xossalriga ta’sir etuvchi bog‘lovchi, to‘ldiruvchilar va ingredientlar ta’siri haqidagi tadqiqotlar keltirib o‘tilgan. Quruq qurilish aralashmalari ishlab chiqarishning fizik-kimyoviy asoslari va ishlab chiqarish xronologiyasi, quruq qurilish aralashmalarning qo‘llanilishi, ishlab chiqarish ko‘lami va mahsulot sifatini oshirish sohasidagi tadqiqotlar keltirib o‘tilgan. Ilmiy-texnik va adabiyotlarda chop etilgan ishlarni tahlili asosida tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Quruq qurilish aralashmalari uchun ishlatiladigan materiallar va tadqiqot usullari**» ishda qo‘llaniladigan materiallarning xususiyatlari, jumladan mahalliy bog‘lovchilar, kvarts va «Farg‘onaazot» AJ hosil bo‘ladigan karbonatli qattiq chiqindi xomashyolarning tarkibi, quruq qurilish aralashmalari ishlab chiqarish uchun to‘ldiruvchi kvarts va karbonatli xomashyoni qamrab olishning zarurati, karbonatli qattiq chiqindi xossalari, tajribalarni o‘tkazish usullari,


kimyoviy tahlillar va fizik-kimyoviy tadqiqotlar usullariga bag'ishlangan.

Dissertatsiyaning «Kvars asosida quruq qurilish aralashmalari olish va ularning optimal parametrlarini aniqlash» deb nomlangan uchinchi bobi mahalliy bog'lovchi, kvars va «Farg'onaazot» AJ hosil bo'ladigan karbonatli qattiq chiqindi xomashyolardan foydalangan holda quruq qurilish aralashmalari tayyorlash, xususan, optimal nisbatlarda tanlab olingan komponentlar ketma ketlik asosida o'zaro aralashtirish, ular tarkibiga kiritiladigan juda oz miqdordagi kimyoviy qo'shimchalar aralashma barcha qismlari uchun teng taqsimlagan holda kiritish va sifatli raqobatbardosh quruq qurilish aralashmalari olishga bag'ishlangan.


Tadqiqot uchun bog'lovchining ikki turi ya'ni «Namangansement» (450+ marka) va «DAI teknik zomin cement and lime» MChJ XKning (CEM I 52.5R yoki M500) oq sementi ishlatildi.

Plastifikator sifatida C-3 va qovushqoqlikni sozlovchi va teksatrop komponent sifatida gidroksietilselluloza ishlatilgan.

To'ldiruvchi sifatida mahalliy daryo (Sirdayro) va Navoiy viloyatida qazib olinadigan oq kvars ishlatildi. Aralashmaga qo'llaniladigan to'ldiruvchi komponentlarining kimyoviy va fizik xossalari o'rganildi(1-rasm).



Navoiy viloyatidagi qum




Namangan viloyatidagi daryo qum

1-rasm. Mikroskop ostida (4x10) qum zarralarining ko'rinishi.

Bir va ikki fraksiyalik to'ldiruvchilarning intergranular bo'shliqlarini baholash uchun qiyosiy sinovlar o'tkazildi. Kvarsning (0,16–0,31) va (1,25–2,5) fraksiyasining donlararo bo'shlig'i mos ravishda 38,5% va 43,2% ni tashkil etdi.

Ikki fraksiyalik aralashma tayyorlash uchun yirik fraksiyaga 90% miqdorga qadar mayin fraksiya qo'shildi. Olingan ikki fraksiyalik kvars aralashmasining eng kichik donlararo bo'shliq qiymati aniqlandi.


Eng kichik donlararo bo'shliq 1,25-2,5 mm va 0,16-0,31 mm nisbatida o'zaro aralashtirilganda 70:30% dan 60:40% gacha bo'lgan nisbatda kuzatiladi va 34% ni tashkil qiladi(2-rasm).



2-rasm. Ikki fraksiyali qum aralashmasining bo'shlig'i.

Shunday qilib, qum fraksiyalarining ushbu nisbatlarida qum donalarining optimal nisbatiga erishiladi, bu bog'lovchini tejaydi, chunki u qum donalari orasidagi bo'shliqlarni to'ldirishga sarflanmaydi.


To'ldiruvchining fraksional tarkibini optimallashtirish, shuningdek, qorishma aralashmalariga maxsus xossalarni berish uchun (ishchanlik, suvni ushlab turish, siqilish deformatsiyalarini kamaytirish) 0,05 - 0,16 mm gacha mikroto'ldiruvchi aralashmaga kiritiladi. Bu eng ko'p ishlatiladigan materiallarga maydalangan kvras qumlari hisoblanadi(3-rasm).



3-rasm. Qumining ikki fraksiyaning aralashma bo'shlig'iga ta'siri (%)
■ - 70:30 va - ◆ - 60:40 nisbatdagi qum

Natijada, maydalangan kvrasning ikki fraksiyali 70:30 nisbatdagi aralashmaga kiritilishi bo'yicha past bo'shliqlik darajasi kuzatildi. Eng optimal natija 10% maydalangan kvras qo'shilganida donalararo bo'shliqlik 31,6% ga teng bo'ladi. Bu to'ldiruvchi aralashma fraksiyalari nisbatining nazariy hisob-kitoblari bilan ham tasdiqlanadi.

Tadqiqot ishida to'ldiruvchi aralashmadagi uchinchi fraksiya sifatida "Farg'onaazot" AJ karbonatli qattiq chiqindining ta'siri o'rganildi(4-rasm).



4-rasm. 70:30 qum aralashmasining bo'shlig'iga mineral qo'shimchalarning ta'siri (qum aralashmasi/qo'shimchasi, %) ■ karbonatli qattiq chiqindi - ◆ - mikrokreminiy.


Aniqlanishicha, karbonatli qattiq chiqindini aralashma tarkibga 30% gacha kiritish maksimal zichlikdagi fraksiyaning oshishiga olib kelmaydi. Biroq, 10% miqdorda qo'shilganda uning eng kichik zichlikka 31,8% ga ega namuna olishga erishiladi. Kichik donlararo bo'shliq hosil bo'lishi uchun karbonatli qattiq chiqindi uning optimal miqdori 10% ni tashkil etadi.

Mikrokremniy qo'shilganida eng yaxshi natijalar uning sement massasining 5% dan 10% gacha bo'lgan miqdorida olingan, bu holatda shpaklyovka qorishmasining yopishqoqlik kuchi nazorat namunalari nisbatan ortishiga olib keldi. Plastifikatorlar ishlatilmasdan

mikrokremniyning miqdorini ortishi, aralashmaga suv miqdorini sarfini oshiradi, bu esa keyinchalik segregatsiya paydo bo'lishiga va qorishmaning xususiyatlarining yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

To'ldiruvchi sifatida ikkita fraksiyalik qum (1,25–2,5 mm va 0,16–0,31 mm) 70:30 nisbatda ishlatildi. Nazorat namunalari esa hech qanday qo'shimcha moddasiz sof sement va fraksiyalanmagan qumdan foydalanildi.

Bog'lovchi: qum nisbati 1:10 dan 1:1 gacha o'zgartirilib, barcha




5-rasm. Bog'lovchining ta'siri: qorishmaning suvni ushlab turish qobiliyatiga to'ldiruvchi nisbati. • Qorishma+C+3+gidroetilselluloza, ◆ Qorishma+C-3+mikrokremniy, ▲ Qorishma+C-3, × Qorishma+karbonatli qattiq chiqindi.

aralashmalar bir xil harakatchanlik (8–10 sm) bilan tayyorlandi. Tayyorlangan suvoq qorishmalarining suvni ushlab turish qobiliyati aniqlandi.

Aniqlanishicha, bog'lovchi:to'ldiruvchi nisbati 1:3 dan 1:5 gacha bo'lgan oraliqda mikrokremniy qo'shimchasi 5% miqdorda kiritilganda suvoq qorishmasining suvni ushlab turish qobiliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu holat mikrokremniyning yuqori mikrog'ovaklik darajasi va kuchli adsorbsion xossalari bilan izohlanadi. Ya'ni, mikrokremniy zarrachalari yuzasida ko'proq miqdorda adsorbsiyalangan suv saqlanadi. Bu esa qorishmaning g'ovak asosga qo'llanganda erta suv yo'qotishini oldini olishga yordam beradi(5-rasm).

Shuningdek, bog'lovchi massasining 10% miqdorida karbonatli qo'shimcha – karbonatli qattiq chiqindi uni kiritilgan holda, bog'lovchi: to'ldiruvchi nisbati 1:5 dan 1:3 gacha bo'lganda, suvga nisbatan bosimdagi mustahkamlik nazorat namunalari nisbatan 6–12% ga oshgani qayd etildi.


500 markali oq portland sement "Zomin sement" va to'ldiruvchi kvars hamda gidroetilselluloza aralashmasining SEM tahlili(6-rasm).



6-rasm. 500 markali oq portland sement “Zomin sement” va to’ldiruvchi kvarts hamda gidroetilselluloza aralashmasining SEM tahlili.

Ko’rsatib o’tilgan 6-rasmdagi quruq qurilish aralashmasining SEM tahlili ko’rsatadi. Birinchi (6-rasm. a) tasvirdagi $\text{Ca}(\text{OH})_2$ (portlandit) fazasiga mansub, ikkinchi (6-rasm. b) tasvirda esa bog’lovchi bilan to’ldiruvchi fazalari strukturasi zichlashib, zichligi ortgani ko’rinadi. Uchinchi (6-rasm. c) tasvirda esa aralashma tarkibiga kiritilgan gidroetilsellulozaning SEM tasvirlari material tarkibida mavjidlignini isbotlaydi.

500 markali oq portland sement “Zomin sement” va to’ldiruvchi kvarts hamda gidroetilselluloza qorishmasining SEM tahlili(7-rasm).



7-rasm. 500 markali oq portland sement “Zomin sement” va to’ldiruvchi kvarts hamda gidroetilselluloza qorishmasining SEM tahlili.

Yuqoridagi 7-rasmdagi SEM tahlili qurilish qorishmasining gidrotatsiya jarayoni ko’rsatadi. Dastlabki (7-rasm. a) tasvirdagi yirik, yelpig’ichsimon va qatlamli kristallar asosan $\text{Ca}(\text{OH})_2$ (portlandit) fazasiga mansub bo’lib, ular material tuzilmasida sezilarli g’ovaklik va bo’shliqlarni hosil qilgan. Keyingi (7-rasm. b) tasvirda esa to’ldiruvchi bilan zich joylashgan CSH (kalsiygidrosilikatlari) fazalarining shakllanishi kuzatilib, material strukturasi zichlashib, mustahkamligi ortgani aniqlanadi. Uchinchi (7-rasm. c) tasvirda ignasimon va tolali shakldagi ettringit kristallarining ko’pligi qayd etilib, ular materialning ichki qatlamida to’r hosil qilgan va bu holat umumiy mustahkamlikni yanada oshirgan. SEM tasvirlari materialning gidrotatsiya mikrostrukturasi izchil ravishda mustahkamlanib borishini isbotlaydi.

Suvoq ishlari uchun quruq qurilish aralashmalarining qorishmalar xossalriga ta’sirini o’rganish, shuningdek bog’lovchi va ratsional fraksiyalarning ratsional tarkibini o’rnatish bo’yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida to’ldiruvchining tarkibi, biz suvoq ishlari uchun quruq qurilish aralashmalari uchun quyidagi retseptlarni taklif qildik(1-jadval).

Materiallar	1 tonna quruq aralashma olish uchun			
	Namuna 1	Namuna 2	Namuna 3	Namuna 4
Oq sement (kg)	222	221,55	220,45	220,45
Kvars fr.1,25-2,5 mm, (kg)	544,6	537	537	529
Kvars fr.0,16-0,31 mm, (kg)	233,4	230	230	226,8
Kvars fr. 0,05 - 0,16 mm, (kg)	–	11	11	–
Karbonatli qattiq chiqindi, (kg)	–	–	–	22,2
C-3, (kg)	–	–	1,1	1,1
Gidroksietilselluloza, (kg)		0,45	0,45	0,45

Sinov-tajriba natijalari asosida olingan mahsulot B 15 sinfiga mos ekanligi aniqlandi va ishlatish uchun tavsiyalar quyidagicha bo'ldi

- birinchi namunani oddiy tashqi fasad va ta'mirlash uchun ishlatish mumkinligi ko'rildi,

- ikkinchi namuna yuqori zichlikka egaligi, qorishmaning harakatchanligi yaxshi ekanligi kuzatildi,

- uchunchi namuna uchun suv sarfi kamayganligi, mustahkamligini birinchi va ikkinchi namunaga nisbatan sezilarli ravishda oshganligi kuzatildi,

- to'rtinchi namunaning yuqori harakatchanligi, suv sarfi me'yorlashgan va yuqori zichlikka ega ekanligi aniqlandi. Devorlarda dekorativ yuzalar hosil qilish, estetik suvoq qoplamalarini ta'mirlash maqsadida qo'llash mumkin.

Sinov-tajriba natijalari asosida olingan mahsulot B 10 sinfiga mos quruq qurulish aralashmalari tayyorlash uchun tavsiyalar quyidagicha 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Quruq qurilish aralashmalarining tarkibi

Materiallar	1 tonna quruq aralashma olish uchun		
	Namuna 5	Namuna 6	Namuna 7
Oq sement (kg)	222	200	200
Kvars fr. 1,25-2,5 mm, (kg)	558	559,3	559
Kvars fr. 0,16-0,31 mm, (kg)	220	239,7	239,6
C-3, (kg)	–	1	1
Gidroetilselluloza, (kg)	–	–	0,4

Sinov-tajriba natijalari asosida olingan mahsulot B 10 sinfiga mos ekanligi aniqlandi va ishlatish uchun tavsiyalar quyidagicha bo'ldi:

- beshinchi namunani oddiy tashqi fasad va ta'mirlash uchun ishlatish mumkinligi ko'rildi,

- oltinchi namunada suv sarfi kamayganligi, qorishmaning harakatchanligi yaxshi ekanligi kuzatildi,

- yettinchi namunaning harakatchanligi va tarkibiy qismlar bir xilda tarqalganligi va qorishmaning xossalari yaxshilanganligi aniqlandi.

Sinov-tajriba natijalari asosida olingan mahsulot B 7,5 sinfiga mos quruq qurilish aralashmalari tayyorlash uchun tavsiyalar quyidagicha 3-

jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Quruq qurilish aralashmalarining tarkibi

Materiallar	1 tonna quruq aralashma olish uchun			
	Namuna 8	Namuna 9	Namuna 10	Namuna 11
Oq sement (kg)	200	200	180	180
Kvars fr. 1,25-2,5 mm, (kg)	573,6	546	559	559
Kvars fr. 0,16-0,31 mm, (kg)	226,4	234	240	239,6
Kvars fr. 0,05 - 0,16 mm, (kg)	—	20	20	20
C-3, (kg)	—	—	1	1
Gidroetil-selluloza, (kg)	—	—	—	0.4

- sakkizinchi namunani oddiy tashqi fasad va ta'mirlash uchun ishlatish mumkinligi ko'ildi,
- to'qqizinchi namunada zichligi va mustahkamligi oshganligi kuzatildi,
- o'ninchi namuna uchun suv sarfi kamayganligi, mustahkamligini birinchi va ikkinchi namunaga nisbatan sezilarli ravishda oshganligi kuzatildi,
- o'n birinchi namunada qorishmaning tarkibiy qismlar bir xilda tarqalganligi harakatchanligi, suv sarfi me'yorlashgan va yuqori zichlikka ega ekanligi aniqlandi.

Quruq qurilish aralashmalari tarkibiga mikroto'ldiruvchi sifatida "Farg'onaazot" AJ texnologik jarayonlarida hosil bo'ladigan qattiq karbonatli chiqindini qo'llash, hamda olingan mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini o'rganish ishlari amalga oshirildi.

Sinov-tajriba natijalari asosida olingan mahsulot B 7,5 sinfiga mos quruq qurilish aralashmalari tayyorlash uchun tavsiyalar quyidagicha 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Quruq qurilish aralashmalarining tarkibi

Materiallar	1 tonna quruq aralashma olish uchun		
	Namuna 12	Namuna 13	Namuna 14
Oq sement (kg)	200	180	180
Kvars fr. 1,25-2,5 mm, (kg)	573,6	573	573
Kvars fr. 0,16-0,31 mm, (kg)	226,4	226	225,6
Karbonatli qattiq chiqindi, (kg)	—	20	20
C-3, (kg)	—	1	1
Gidroetilselluloza, (kg)	—	—	0,4

Sinov-tajriba natijalari asosida olingan mahsulot B 7,5 sinfiga mos ekanligi aniqlandi va ishlatish uchun tavsiyalar quyidagicha bo'ldi:

- o'n ikkinchi namunani oddiy tashqi fasad va ta'mirlash uchun ishlatish mumkinligi ko'ildi,
- o'n uchinchi namuna yuqori zichlikka egaligi, qorishmaning

- harakatchanligi yaxshilanganligi va suv sarfi kamayganligi kuzatildi,
- o'n to'rtinchi namunada qorishmaning tarkibiy qismlar bir xilda tarqalganligi harakatchanligi, suv sarfi me'yorlashgan va yuqori zichlikka ega ekanligi aniqlandi.

Aralashma tayyorlash uchun bog'lovchi sifatida "Namangansment" MChJ tomonidan ishlab chiqariladigan (SEMII/B-K 32,5N, 450) ning portland sementi va to'ldiruvchi sifatida daryo (Sirdaryo) kvarsining turli fraksiyalari ishlatildi.

Sinov-tajriba natijalari asosida olingan mahsulot B 10 sinfiga mos quruq qurilish aralashmalari tayyorlash uchun tavsiyalar quyidagicha 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Quruq qurilish aralashmalarining tarkibi

Materiallar	1 tonna quruq aralashma olish uchun		
	Namuna 15	Namuna 16	Namuna 17
Namangan sement (kg)	250	225	225
Kvars fr. 1,25-2,5 mm, (kg)	525	541,6	541,2
Kvars fr. 0,16-0,31 mm, (kg)	225	232,15	232,15
C-3, (kg)	—	1,25	1,25
Gidroetilselluloza, (kg)	—	—	0,4

Sinov-tajriba natijalari asosida olingan mahsulot B 10 sinfiga mos ekanligi aniqlandi va ishlatish uchun tavsiyalar quyidagicha bo'ldi:

- o'n beshinchi namunani oddiy ta'mirlash uchun ishlatish mumkinligi aniqlandi,
- o'n oltinchi namunada suv sarfi va bog'lovchi miqdori kamayganligi, qorishmaning harakatchanligi yaxshilanganligi kuzatildi,
- o'n yettinchi namunaning harakatchanligi yaxshilangan va tarkibiy qismlar bir xilda tarqalganligi hamda qorishmaning xossalari yaxshilanganligi aniqlandi.

Shunday qilib, TU 1557-042-00884306-05 "Suvoq ishlari uchun quruq qurilish aralashmalari" turli xil qurilish va texnik xususiyatlar va qo'llash sohalari (6-jadval) bilan quruq suvoq aralashmalari olingan.

6-jadval.

Quruq qurilish aralashmalarining texnik xususiyatlari

Suvoq qorishmalarining xossalari	Quruq qurilish aralashmalar											
	Namuna 1	Namuna 2	Namuna 3	Namuna 4	Namuna 6	Namuna 7	Namuna 10	Namuna 11	Namuna 13	Namuna 14	Namuna 17	Namuna 18
Suvga bo'lgan ehtiyoj, %	68	72	58	62	58	62	60	62	62	62	60	64
Qotish vaqti, s	1,5	1,5	2,5	2,5	2	2	2	2,5	2	2,5	1,5	2
Qo'llash imkoniyati *)	+	+	++	++	+	++	+	++	+	+	+	++
Qo'llash	30	30	30	30	30	30	30	30	30	30	30	30


qalinligi, mm												
Yoriq shakllanishi	yo'q											
O'rtacha zichlik, kg/m ³	1880	1900	1920	1955	1940	1968	1940	1965	1910	1920	1930	1945
Suvni ushlab turish qobiliyati, %	92,3	94	95,4	96,8	95,2	96	94,5	95,5	95	96,2	93	94,6
Siqilish kuchi, MPa	14,5	14,7	15,6	16	10,4	11	7,55	7,8	7,4	7,6	9,6	10,2
Sovuqqa chidamlilik, sikllar	75	75	150	200	100	100	75	75	75	75	100	100

*+-yaxshi

++- juda yaxshi

Ushbu suvoq qorishmasining harakatchanligi konusning botishi tavsiya etilgan (GOST 28013-98) sinfi bo'yicha 10-12 sm oralig'ida belgilab olindi. Qorilgan namunalar 4x4x16 qoliplarga quyiladi va bir sutkadan so'ng qoliplardan yechiladi hamda 28 sutkadan so'ng siqilishga bo'lgan mustahkamlik aniqlandi.

Turli olingan natijalarga asoslanib aytish mumkinki, bog'lovchiga nisbatan to'ldiruvchi (1:2, 1:3, 1:4) miqdori o'zgarishi bilan ularning mustahkamligi ham o'zgarib bordi, ya'ni to'ldiruvchi miqdori ortib borishi bilan mustahkamlik sezilarli darajada kamayib boradi(8-rasm).



8-rasm. Siqilishga bo'lgan mustahkamlik.


Yuqoridagi grafik natijalaridan ko'rinib turibdiki qorishma dizayn yoshiga to'lishi va namunaning vaqt o'tishi bilan mustahkamligi ortishi kuzatildi. Sement va qumning nisbatlari ortishi bilan namunada mustahkamlik yuqori bo'lib bog'lovchining sarfi ortishi va mahsulot tan narxini ko'tarilishiga olib keladi.

Sement aralashmalarining fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilash yo'llaridan biri, bu aralashmani maqsadli tartibga solish, shuningdek, ularning moddiy sarfini kamaytirish imkonini beradi. Aralashma bilan har xil tabiatdagi mayda maydalangan mineral qo'shimchalar kiritish orqali bog'lovchi sarfini kamaytiriladi.

Sozlovchi qo'shimchalar quruq qurilish aralashmalarining ko'pchiligiga ikki guruhga ajratib ko'rsatish tavsiya etiladi: suvda eruvchan

modifikatsiyalangan selluloza efirlari va qayta guruhlantirilgan polimer parashoklari. Qurilish aralashmasi suv bilan aralashtirilganda, erigan selluloza molekullari suvni mustahkam ushlab turadigan akva-komplekslarni hosil qiladi.

TSh 6-36-0204229-625-90 talablariga javob beradigan C-3 plastifikator turli miqdor (bog'lovchiga nisbatan foizlar) da kiritish orqali olingan namunalarning mustahkamlik darajasi o'zgarishi quyidagi 9-rasmda berilgan.




9-rasm. Plastifikator C3 ning turli miqdorda (%) ta'siridagi siqilishga bo'lgan mustahkamligiga ta'siri.

C3 plastifikator aralashma tarkibiga juda oz miqdorda kiritilishiga qaramay aralashma xususiyatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Aralashma tarkibiga (0,5 %) kiritilgan plastifikator sarflanadigan suv sarfini sezilarli darajada 0,25% ga qadar kamaytirishi aniqlandi.

Modifikator sifatida suvni ushlab turuvchilar sifatida turli selluloza efirlari qo'llash mumkin.

Gidraetilsellulozaning turli miqdorda parashok holatida kiritilishi natijasida suvni ushlab turish xususiyatini yaxshilash bilan birga suvoq jarayonida aralashmaning tabaqalanib ajralishini oldini oladi(10-rasm).




10-rasm. Hidroksietilsullulozaning turli miqdorda (%) gi siqilishga bo'lgan mustahkamligiga ta'siri.

Aralashma tarkibiga turli kimyoviy qo'shimchalar kiritish orqali uning tarkibi va xususiyatlarini talabga qarab sozlash imkonini beradi. Bu kimyoviy qo'shimchalar juda oz miqdorda qo'shilishiga qaramay aralashma qorish jarayonida sarf bo'ladigan suv miqdoriga, harakatchanligiga, qotish davrini nazorat qilish imkoni hamda mustahkamligiga ta'sir ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning «**Quruq qurilish aralashmalar ishlab chiqarish texnologiyasi va texnik iqtisodiy korsatkichlari**» deb nomlangan to'rtinchi bobi quruq qurilish aralashmalari ishlab chiqarishning texnologik bosqichlari va mahsulot olishning texnologik sxemasi, quruq qurilish aralashmalari ishlab chiqarishda qo'llaniladigan «Farg'onaazot» AJ ning

karbonatli qattiq chiqindilari asosida quruq qurilish aralashmalariga to'ldiruvchi olish texnologiyasini iqtisodiy samaradorligi, quruq qurilish aralashmalar olishning moddiy balansi, kvars asosida dekarativ suvoq ishlari uchun quruq qurilish aralashmalar ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligiga bag'ishlangan.

Kengaytirilgan assortimentdagi quruq qurilish aralashmalarini ishlab chiqarishning umumlashtirilgan texnologik sxemasi 11-rasmda keltirilgan.



11-rasm. Sement asosidagi quruq qurilish aralashmalari ishlab chiqarish texnologiyasi.

1- kvars ombori; 2- bog'lovchi ombor; 3- mikroto'ldiruvchi ombor; 4- plastifikator ombor; 5- modifikator ombor; 6- xomashyo bunkerlari; 7- boshqaruv paneli; 8- tasmali transportyor; 9- quritish uskunalari; 10- vibroelak; 11- qurutilgan va elangan kvars va mikroto'ldiruvchi ombor; 12- chiqindi; 13- dozator; 14- aralastirgich; 15- qadoqlash; 16- tayyor mahsulot.

Tanlab olingan bir qacha ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan kelishib tayyor quruq qurilish aralashma ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi (12-rasm).




12-rasm. Olingan mahsulotlarni amaliyotga qo'llanilishi.


Ushbu mahsulotlarni amaliyotga joriy etish atrof muhitga zararli chiqindilar chiqarmasligi bilan birga ekologik barqarorlik ta'minlanadi. Qayta ishlangan chiqindilarning mahsulot tarkibiga kiritilishi sanoat chiqindilarini kamaytiradi, tabiiy resurslarga bo'lgan bosimni pasaytiradi hamda atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

«Farg'onaazot» AJ da hosil bo'ladigan karbonatli qattiq chiqindining fizik-kimyoviy xossalari o'rganilgan. Uning rentgen va IQ spektrlari olingan va kimyoviy tahlillar orqali tarkibi o'rganilgan.

«Farg'onaazot» AJ ning suvni yumshatish sexlarida va ammiak ishlab chiqarishda ishqorni regeneratsiya qilish jarayonlarida hosil bo'ladiganda qattiq karbonatli chiqindining kimyoviy tarkibi Rigaku NEX CG EDXRF(Yaponiya) yuqori samarali energodispersion fluorenstsentli spektrometr(6-rasm) va SHIMADZU kompaniyaning IR Spirit Fure spektrometri yordamida tahlil etildi (13,14-rasmlar).



13-rasm. «Farg'onaazot» AJ da hosil bo'layotgan qattiq chiqindilarning spektri.



14-rasm. Karbonatli qattiq chiqindilarning disperslik darajasi.

O'rganishlar natijasida «Farg'onaazot» AJ suvni yumshatish sexlarida hosil bo'ladigan qattiq karbonatli chiqindilarni to'yinmagan poliefir asosida olinadigan kompozitsion qoplamalar tarkibida to'ldiruvchi sifatida qo'llash mumkinligi asoslandi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, shuni aytish mumkinki, 1 tonna quruq qurilish aralashmaning tannarxi 1 674 251 so'mga tushadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, 1 tn quruq qurilish aralashma narxi 2 700 000 so'mni tashkil etadi. Agar ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xarajatlarni chiqarib tashlaydigan bo'lsak, sof foyda: $2\,700\,000 - 1\,674\,251 = 1\,025\,749$ so'mni tashkil etadi.

XULOSA

1. Mahalliy kvarts xomashyosining mineralogik, kimyoviy va fizik-mexanik xossalari o'rganildi, uning tarkibi kimyoviy, fizik –kimyoviy usullar orqali tahlil qilindi, qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish hamda ushbu xomashyoni qurilish aralashmalarida to'ldiruvchi sifatida qo'llash

mumkinligi ko'rsatildi. Kvarsning 1,25-2,5 mm va 0,16-0,31 mm o'lchamdagi fraksiyalari 70:30% nisbatda olingan tarkib eng maqbul ekanligi aniqlandi, hamda tayyor mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini GOST talablariga muvofiq kelishi aniqlandi.

2. Quruq qurilish aralashmalarining yangi tarkibi ishlab chiqildi, ularning fizik-mexanik va ishlov berish xossalarini yaxshilash maqsadida modifikatorlar C-3 rusumli plastifikator va gidroksietilsellulozaning turli molekulyar massaga ega bo'lgan fraksiyalari qo'llanildi. Ularning konsentratsiyalari mos ravishda 0.5% va 0.2% bo'lganda mahsulot sifati yuqori bo'lishi ko'rsatildi.

3. Qorishmaning qotish jarayoniga ta'sir qiluvchi asosiy omillar olingan mahsulotning qotish kinetikasini o'rganish oraqli, aniqlandi. Olingan ma'lumotlarga tayanib regression usul yordamida jarayon matematik modellashtirildi. Mahsulotning qotish vaqtini ixtiyoriy ishchi haroratda oldindan aniqlash imkonini beruvchi matematik funksiya ($t(T,x,y) = -1.099T - 9.498x - 11.739y + 80.689$) tavsiya etildi.

4. Quruq qurilish aralashmalarini amaliy sharoitda tayyorlash va sinovdan o'tkazish GOST 31189 – 2015, GOST 31356-2007, GOST 31357-2007 GOST 28013-98, GOST 5802-86 standartlariga muvofiq amalga oshirildi, uning ishlab chiqarish texnologiyalariga mosligi amaliyotga joriy etish orqali isbotlandi.

5. "Farg'onaazot" AJ qattiq karbonatli chiqindilarning fizik-kimyoviy tarkibini o'rganildi, ularni qurilishda qo'llash bo'yicha texnologik yechim ishlab chiqildi. Gips asosidagi quruq qurilish aralashmalari ishlab chiqarishda to'ldiruvchi, sement asosida quruq qurilish aralashmalari ishlab chiqarishda esa mikroto'ldiruvchi (5-10%) sifatida qo'llash mumkinligi asoslandi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
DSc.03/2025.27.12.К/Т.15.08 ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ
НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЗОКИРОВ ХОЛБЕК ТИЛЛАНАЗАР УГЛИ

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ИЗГОТОВЛЕНИЯ АТМОСФЕРОСТОЙКИХ
СТРОИТЕЛЬНЫХ И ДЕКОРАТИВНЫХ ИЗДЕЛИЙ НА ОСНОВЕ
МЕСТНОГО КВАРЦА**

02.00.13 – Технология неорганических веществ и материалов на их основе

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган – 2026

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2021.2.PhD/T2234.

Диссертация выполнена в Наманганском государственном техническом университете и Наманганском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного семинара (www.namdtu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» по адресу (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Абдуллаев Олим Гуламжанович доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Темиров Ўктам Шавкатович доктор технических наук, доцент Холматов Дилшод Сатторжонович доктор технических наук, доцент
Ведущая организация:	Ташкентский государственный технический университет

Защита диссертации состоится «18» апреля 2026 г. в «09:00» часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.K/T.15.08 при Наманганском государственном техническом университете. (Адрес: 160115, Наманганская область, город Наманган, улица Касансай, 7. Тел +99869 234-15-23; факс: +99869 234-15-23; e-mail: namdtu_info@edu.uz).

Диссертация зарегистрирована в информационно-ресурсном центре Наманганского государственного технического университета за № 154, с которой можно ознакомиться в ИПЦ (160103, Наманганская область, город Наманган, улица И.Каримов, 12. Тел.: +99869 234-15-23.

Автореферат диссертации разослан «2» апреля 2026 года.
(протокол рассылки № 8 от «2» апреля 2026 года).

Эргашев О.К.

Председатель научного совета по присуждению ученой степени, д.х.н., профессор

Маллабаев О.Т.

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученой степени, д.х.н.ф, доцент

Шеркузиев Д.Ш.

Председатель научного семинара
при научном совете по
присуждению учёной степени,
д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (реферат диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Рост численности населения в мировом масштабе обуславливает необходимость модернизации промышленности строительных материалов, организации производства конкурентоспособной, экономически доступной и экологически безопасной продукции. В частности, в направлении сухих строительных смесей усиливается внимание к внедрению новых технологий и рациональному использованию имеющихся ресурсов, то есть к разработке высококачественных композиционных материалов на основе местного сырья. Производство продукции, замещающей существующие материалы, является важным фактором не только получения экономической выгоды, но и обеспечения независимости строительной отрасли. Создание технологии новых видов готовых сухих строительных смесей, более эффективных, энергосберегающих и экологически безопасных по сравнению с традиционными штукатурными материалами, является актуальной задачей.

В мировой практике химические добавки, применяемые в составе сухих строительных смесей, приводят к увеличению себестоимости продукции. В последних исследованиях ведётся поиск путей оптимизации состава с целью организации производства при сохранении качества и эксплуатационных свойств материалов. В этой связи особое внимание уделяется налаживанию производства готовых сухих строительных смесей для внутренних и наружных работ зданий и сооружений, удовлетворению потребностей потребителей; разработке эффективных методов упрощения технологического процесса на основе местного сырья; определению оптимальных технологических показателей вяжущих, наполнителей и применяемых модификаторов, а также созданию рациональной технологии получения сухих строительных смесей улучшенного качества.

В республике реализуются широкомасштабные меры по ускоренному развитию химической и строительной промышленности, модернизации и совершенствованию производства, созданию предприятий по выпуску качественной и новой продукции, локализации сырьевой базы и производству новых видов импортозамещающей продукции, в результате чего достигаются определённые научные и практические результаты. В третьем направлении Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы определены важные задачи, такие как «...продолжение реализации промышленной политики, направленной на обеспечение устойчивости национальной экономики, увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте и рост объёма

промышленного производства в 1,4 раза»¹. В этом контексте разработка оптимальных соотношений вяжущих и наполнителей на основе местного сырья, исследование физико-химических свойств наполнителей и их применение в составе смесей, а также создание технологии производства готовых сухих строительных смесей приобретают особую значимость.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени направлено на реализацию задач, установленных Постановлением Президента Республики Узбекистан № ПП-99 от 24 января 2022 года, предусматривающим расширение промышленной кооперации, повышение эффективности производства и глубокую переработку местного сырья, а также постановлениями № ПП-4335 от 23 мая 2019 года «О дополнительных мерах по ускоренному развитию промышленности строительных материалов» и № ПП-4265 от 3 апреля 2019 года «О мерах по дальнейшему реформированию химической промышленности и повышению её инвестиционной привлекательности», и другими нормативно-правовыми документами в данной сфере.

Актуальность исследования для приоритетных направлений развития науки и технологий в республике. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики Узбекистан: II. «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение» и VII. «Химическая технология и нанотехнологии».

Уровень понимания проблемы. В мире вопросам технологии производства строительных материалов, их состава, физико-механических свойств и областей применения посвящены исследования ряда отечественных и зарубежных учёных, среди которых: В.И. Соломатов, М.В. Акулова, В.Г. Батракова, В.В. Белова, М.А. Гончарова, Б.В. Гусев, В.С. Демьянова, Л.М. Добшиц, В.Т. Ерофеев, В.И. Калашников, П.Г. Комохов, В.И. Кондрашенко, В.И. Логанина, Н.И. Макридин, О.П. Мчедлов-Петросян, И.В. Недосеко, В.Т. Перцев, О.В. Смирнова, В.Д. Черкасов, А.В. Ушерова-Маршак, С.В. Федосов, А.П. Федорцов, В.Т. Фомичев, Г.И. Яковлев, J. Bernal, M. Dzako, R. Lermitt, Ю.М. Баженов, А.В. Волженский, В.Ф. Журавлев, В.С. Изотов, Б.Г. Скрамтаев, Р.З. Рахимов, В.Н. Юнг, А. Ахмедов и другие.

Наряду с этим ведутся исследования по созданию новых видов сухих строительных смесей, использованию в их составе местного сырья и техногенных отходов, улучшению эксплуатационных и технологических свойств данных материалов, а также их предварительной оценке с применением методов математического моделирования.

